

O'YIN FAOLIYATI ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI ALALIK BOLALARDA LUG'AT BOYLIGINI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI MAVZUSINING ILMIY-NAZARIY O'RGANILISH HOLATI

Abdiyeva Yulduz Botiraliyevna,
Toshkent Kimyo xalqaro universiteti magistranti

Annotatsiya. Mazkur mavzuda o'yin faoliyati asosida maktabgacha yoshdagi alalik bolalarda lug'at boyligini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari o'rganiladi. Unda bolalarning nutqiy rivojlanish xususiyatlari, alaliya bilan bog'liq muammolar, psixologik-pedagogik yondashuvlar hamda o'yin orqali nutqni rivojlantirish usullari tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud ilmiy tadqiqotlar natijalariga tayangan holda samarali metod va texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari yoritiladi. Maktabgacha yoshdagi alalik bolalarda lug'at boyligini rivojlantirish tizimli, izchil va bosqichma-bosqich yondashuvni talab etadi. O'yin faoliyatiga asoslangan pedagogik va logopedik ishlar lug'atni kengaytirish, so'zlarni to'g'ri qo'llash hamda nutqiy faollikni oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Samarali natijalarga erishish esa individual yondashuv, muntazam korreksion mashg'ulotlar va psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash bilan ta'minlanadi.

Kalit so'zlar: o'yin faoliyati, alaliya, maktabgacha yosh, lug'at boyligi, nutq rivoji, logopediya, maxsus pedagogika, didaktik o'yinlar, nutqiy faollik, leksik rivojlanish, korreksion ishlar, pedagogik texnologiyalar.

Аннотация. В данной теме рассматриваются научно-теоретические основы развития словарного запаса у детей дошкольного возраста с алалией на основе игровой деятельности. Анализируются особенности речевого развития детей, проблемы, связанные с алалией, психолого-педагогические подходы, а также методы развития речи через игру. Также на основе существующих научных исследований освещаются возможности применения эффективных методов и технологий. Таким образом, развитие словарного запаса у детей дошкольного возраста с алалией требует системного, последовательного и поэтапного подхода. Педагогическая и логопедическая работа, основанная на игровой деятельности, способствует расширению словарного запаса, правильному употреблению слов и повышению речевой активности. Эффективные результаты обеспечиваются индивидуальным подходом, регулярными коррекционными занятиями и психолого-педагогической поддержкой.

Ключевые слова: игровая деятельность, алалия, дошкольный возраст, словарный запас, развитие речи, логопедия, специальная педагогика, дидактические игры, речевая активность, лексическое развитие, коррекционная работа, педагогические технологии.

Abstract. This study examines the scientific and theoretical foundations of developing vocabulary in preschool children with alalia through play-based activities. It analyzes the characteristics of children's speech development, problems associated with alalia, psychological and pedagogical approaches, and methods of speech development through play. Additionally, based on existing scientific research, the possibilities of applying effective methods and technologies are highlighted. The development of vocabulary in preschool children with alalia requires a systematic, consistent, and step-by-step approach. Pedagogical and speech therapy work based on play activities plays an important role in expanding vocabulary, correct word usage, and increasing speech activity. Effective results are ensured through an individual approach, regular corrective sessions, and psychological and pedagogical support.

Keywords: play activity, alalia, preschool age, vocabulary, speech development, speech therapy, special pedagogy, didactic games, speech activity, lexical development, corrective work, pedagogical technologies.

Kirish. To'g'ri va rivojlangan nutq bolaning har tomonlama shakllanishining muhim omili hisoblanadi. Ayniqsa maktabgacha yosh davrida nutq bolaning tafakkuri, atrof-

muhitni idrok etishi, muloqotga kirishishi va ijtimoiylashuvida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Lug'at boyligi keng bo'lgan bola o'z fikrlarini aniq va ravon ifodalay oladi, bu esa uning psixik rivojlanishi va shaxs sifatida kamol topishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli bolalarda nutqni o'z vaqtida shakllantirish, undagi kamchiliklarni aniqlash va bartaraf etish muhim pedagogik va logopedik vazifalardan biridir.

Nutq buzilishlari, xususan alaliya, bolaning nafaqat nutqiy, balki umumiy psixologik rivojlanishiga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Nutqiy muloqotning cheklanganligi diqqat, xotira, tafakkur jarayonlarining sustlashishiga, emotsional-irodaviy sohada muammolar yuzaga kelishiga olib keladi. Bu esa bolaning ta'lim jarayoniga moslashuvi va kelgusidagi ijtimoiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bois maktabgacha yoshdagi alalik bolalarda nutqiy va nutqiy bo'lmagan kamchiliklarni aniqlash hamda ularni korreksiyalash dolzarb ilmiy-amaliy muammo hisoblanadi.

Adabiyotlar tahlili. Mazkur mavzu doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar nutq rivoji, o'yin faoliyati va alaliya muammosining nazariy asoslarini keng yoritib beradi. Xususan, L.S.Vygotskiy, A.N.Leontyev va A.R.Luriya asarlarida nutq va tafakkur o'rtasidagi uzviy bog'liqlik hamda nutq faoliyatining psixologik mexanizmlari asoslab berilgan. D.B. Elkonin o'yin faoliyatining bola rivojidadagi yetakchi o'rni ko'rsatib, nutqni rivojlantirishdagi ahamiyatini ta'kidlaydi. Shuningdek, logopediya sohasidagi G.A.Volkova, T.B.Filicheva va G.V.Chirkina tadqiqotlarida nutq buzilishlarini korreksiyalash, jumladan alaliya holatida lug'at boyligini rivojlantirishning samarali metodlari yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolani tayyorlash jarayonida logopediya, maxsus pedagogika va bolalar psixologiyasiga oid ilmiy adabiyotlar, psixologik-pedagogik tahlillar, maktabgacha yoshdagi alalik bolalar bilan olib borilgan kuzatuv va diagnostika natijalari hamda amaliy tajriba materiallari tahlil qilindi. Shuningdek, lug'at boyligini rivojlantirishga qaratilgan didaktik o'yinlar, o'yin texnologiyalari va logopedik metodlar asosida tadqiqot olib borildi.

Tahlillar va natijalar. Alaliya – bosh miya po'stlog'ining nutq zonalari organik zararlanishi natijasida nutqning rivojlanmay qolishi bilan tavsiflanadigan murakkab nutqiy buzilishdir. Ushbu holat odatda bolaning prenatal yoki erta ontogenez davrida yuzaga keladi. "Alaliya" atamasi yunoncha "a" – inkor va lotincha "lalio" – nutq so'zlaridan kelib chiqqan bo'lib, nutqning yo'qligi yoki keskin rivojlanmaganligini anglatadi. Ilmiy adabiyotlarda ushbu tushuncha "rivojlanish afaziyasi", "ontogenetik afaziya", "disfaziya" kabi atamalar bilan ham ifodalanadi.

Alaliya sensor va motor shakllarga ajratiladi. Motor alaliyada bola nutqni nisbatan tushunadi, ammo uni ifodalashda jiddiy qiyinchiliklarga duch keladi. Bunda artikulyatsion harakatlarning yetarli shakllanmaganligi, nutq apparati koordinatsiyasining buzilishi, tovush va bo'g'inlarni ketma-ket ifodalashdagi qiyinchiliklar kuzatiladi. Natijada bola mustaqil nutqni rivojlantira olmaydi yoki nutqi cheklangan holda shakllanadi.

Motor alaliyada lug‘at boyligi alohida ahamiyat kasb etadi, chunki u bolaning bilish faoliyati bilan bevosita bog‘liqdir. Lug‘atning yetarli rivojlanmaganligi predmet va hodisalarni nomlash, harakatlarni ifodalash, umumlashtirish va mantiqiy bog‘lanishlarni tushunishda qiyinchiliklarga olib keladi. Shu sababli maktabgacha yoshdagi alalik bolalarda lug‘at boyligini rivojlantirish muhim ilmiy va amaliy vazifa hisoblanadi.

Mazkur muammoni hal etishda o‘yin faoliyati samarali vosita sifatida namoyon bo‘ladi. O‘yin bolalar uchun tabiiy faoliyat turi bo‘lib, u orqali ular yangi so‘zlarni o‘zlashtiradi va nutqiy faoliyatni erkin amalga oshiradi. O‘yin jarayonida nutq majburiy emas, balki qiziqish asosida rivojlanadi. Ayniqsa didaktik va syujetli-rolli o‘yinlar lug‘at boyligini kengaytirish, so‘z ma‘nosini aniqlashtirish hamda nutqiy faollikni oshirishda muhim ahamiyatga ega.

Shu bois o‘yin faoliyati asosida maktabgacha yoshdagi alalik bolalarda lug‘at boyligini rivojlantirish texnologiyasini ilmiy-nazariy jihatdan o‘rganish va samarali metodlarni ishlab chiqish dolzarb pedagogik va logopedik vazifalardan biri hisoblanadi.

Tadqiqot jarayonida maktabgacha yoshdagi alalik bolalarda lug‘at boyligini o‘rganish va rivojlantirish kompleks metodik yondashuv asosida amalga oshirildi. Dastlab bolalarning kundalik muloqotdagi nutqiy faolligi, kattalar va tengdoshlari bilan aloqa qilish usullari, imo-ishora va mimikadan foydalanish darajasi kuzatildi. Keyingi bosqichda logopedik suhbat orqali bolaning sodda savollarga javob berishi, ehtiyojlarini ifodalashi, predmet va harakatlarni nomlashi, rang va belgilarni ajratishi aniqlashtirildi.

Diagnostika jarayonida lug‘at boyligini baholash uchun turli topshiriqlar qo‘llanildi. Jumladan, predmetlarni nomlash (o‘yinchoqlar, kiyimlar, hayvonlar, transport vositalari), harakatlarni ifodalash (yugurmoqda, ichmoqda, uxlamogda), belgilarni aytish (katta-kichik, issiq-sovuq), umumlashtirish (mevalar, sabzavotlar, kiyimlar), ortiqcha so‘zni topish, rasm asosida gap tuzish hamda ketma-ket rasmlar asosida hikoya tuzish topshiriqlari berildi. Shuningdek, dialogik nutqda savol-javob, monologik nutqda esa mustaqil bayon qilish ko‘nikmalari o‘rganildi.

Yo‘nalish	O‘yin nomi	Maqsad	Jarayon (qisqacha)	Kutilayotgan natija
Passiv lug‘atni rivojlantirish	“Rasmni top”	So‘z va predmetni bog‘lash	Logoped so‘z aytadi, bola rasmni topadi	So‘zlarni tushunish kuchayadi
Faol lug‘at (otlar)	“Nima bu?”	Predmetlarni nomlash	Bola rasmni ko‘rib nomlaydi	Nomlash ko‘nikmasi shakllanadi
Faol lug‘at (fe‘llar)	“Nima qilyapti?”	Harakatni ifodalash	Rasm asosida harakat aytiladi	Fe‘llardan foydalanish ortadi
Faol lug‘at (sifatlar)	“Qanday?”	Belgini ifodalash	Predmetning rang, o‘lcham, sifatini aytadi	Sifatlar qo‘llanilishi kengayadi
Umumlashtirish	“Ortiqchasini top”	Kategoriya ajratish	4 rasm ichidan ortiqchasini topadi	Mantiqiy fikrlash rivojlanadi
Leksik aniqlik	“To‘g‘ri tanla”	So‘z ma‘nosini aniqlashtirish	Mos so‘zni tanlash topshiriladi	So‘zlarni to‘g‘ri qo‘llash shakllanadi
Bog‘langan nutq	“Rasmga qarab	Gap tuzish	Bola rasm asosida gap	Nutq izchilligi

Yo'nalish	O'yin nomi	Maqsad	Jarayon (qisqacha)	Kutilayotgan natija
	gapir"		tuzadi	rivojlanadi
Hikoya tuzish	"Hikoya qil"	Ketma-ket nutq	Rasmlar ketma-ketligidan hikoya tuzadi	Monologik nutq shakllanadi
Dialogik nutq	"Savol-javob"	Muloqot ko'nikmasi	Logoped savol beradi, bola javob beradi	Dialogik nutq rivojlanadi
Nutqiy faollik	"Top-chi!"	Faollikni oshirish	Bola predmetni tavsiflaydi, boshqalar topadi	Muloqotga kirishish kuchayadi


1-jadval. Alalik bolalarda lug'at boyligini rivojlantirishga qaratilgan o'yinli mashg'ulotlar tizimi

Mazkur baholash tizimi bolalarda nutqiy rivojlanishning qaysi komponentlari sust rivojlanganini aniqlash hamda keyingi korreksion ishlarni rejalashtirish imkonini beradi.

O'tkazilgan kuzatuv va diagnostika natijalari shuni ko'rsatdiki, alalik bolalarda passiv va faol lug'at o'rtasida sezilarli tafovut mavjud. Ko'pchilik holatlarda bola predmetni tushunadi, ammo uni nomlashda qiyinchilikka duch keladi. So'z topishda pauza, almashtirish, umumlashtiruvchi tushunchalarni qo'llay olmaslik holatlari kuzatildi.

Fe'llar va sifatlarni qo'llash cheklangan bo'lib, nutq asosan otlar bilan ifodalanadi. Leksik-semantik tizimda so'z ma'nosining noaniqligi, noto'g'ri qo'llanishi, kontekstga mos kelmasligi kabi kamchiliklar aniqlangan. Dialogik nutqda qisqa javoblar, monologik nutqda esa izchillikning buzilishi, sabab-oqibat bog'lanishlarining yetishmasligi kuzatiladi.

Shuningdek, nutqiy qiyinchiliklar sabab bola imo-ishora va mimikaga ko'proq tayanadi, bu esa nutqning rivojlanishini yanada sekinlashtiradi.



2-rasm. Alalik bolalarda lug'at va nutq rivojlanish darajalari.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, o'yin faoliyati alalik bolalarda lug'at boyligini rivojlantirishda eng samarali vositalardan biridir. O'yin jarayonida bola nutqiy faoliyatga majbur emas, balki qiziqish asosida jalb qilinadi. Bu esa nutqiy motivatsiyani oshiradi va so'z boyligini tabiiy ravishda kengaytiradi.

Didaktik va syujetli-rolli o'yinlar orqali bola so'zlarni faol qo'llashga, predmet va harakatlarni ifodalashga, muloqotga kirishishga o'rganadi. Natijada nutqiy faollik ortadi va kommunikativ ko'nikmalar shakllanadi.

Alalik bolalarda lug'at boyligini rivojlantirish uchun quyidagi o'yinlar samarali hisoblanadi:

“Bir xil rasm” – ko‘rish xotirasini va so‘z bilan ifodalashni rivojlantiradi;

“Hisob cho‘plari” – diqqat va tez fikrlashni kuchaytiradi;

“Shaklni eslab yasash” – xotira va nomlash ko‘nikmasini rivojlantiradi;

“Top-chi!” – predmet belgilarini ifodalash va muloqotni faollashtiradi.

Ushbu o'yinlar orqali bola so'zlarni bog'lab ishlatishga, ma'noni aniqlashtirishga va nutqiy faollikni oshirishga erishadi.

Xulosa. Natijalardan kelib chiqib, alalik bolalarda lug'at boyligini rivojlantirishda o'yin faoliyatiga asoslangan yondashuv samarali ekanligi aniqlandi. O'yin orqali bola nutqiy faoliyatga tabiiy jalb qilinadi, bu esa uning nutqini faollashtirish va lug'atini bosqichma-bosqich kengaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Выготский Л.С. Мышление и речь. - М.: Педагогика, 1982. - 287 с.
2. Леонтьев А.Н. Деятельность. Сознание. Личность. - М.: Политиздат, 1975. - 304 с.
3. Лурия А.Р. Язык и сознание. - М.: Издательство МГУ, 1979. - 320 с.
4. Эльконин Д.Б. Психология игры. - М.: Педагогика, 1978. - 304 с.
5. Волкова Г.А. Логопедия. - М.: Владос, 2003. - 384 с.
6. Жукова Н.С., Мастюкова Е.М., Филичева Т.Б. Логопедия. Основы теории и практики. - М.: Просвещение, 1998. - 256 с.
7. Филичева Т.Б., Чиркина Г.В. Устранение общего недоразвития речи у детей. - М.: Айрис-пресс, 2005. - 224 с.
8. Миронова С.А. Развитие речи дошкольников. - М.: Академия, 2007. - 192 с.
9. Блонский П.П. Педология. - М.: Педагогика, 1999. - 384 с.
10. Селиверстов В.И. Логопедия. - М.: Владос, 2004. - 384 с.
11. Ўзбекистон Республикаси Мактабгача таълим вазирлиги. “Илк қадам” давлат ўқув дастури. - Тошкент, 2018.
12. Раҳимов А. Логопедия асослари. - Тошкент: Ўқитувчи, 2010. - 220 б.